

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 25-yanvar № 1 (1523)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



Po'lat zoldirlar, rangli metallar, sirlangan po'lat idishlar ishlab chiqaruvchilar o'tgan yil rejalarini ziyodi bilan ado etishdi. Qahraton sovuq kunlarida ham energetiklarimiz kunu tun ishlab o'z vazifalarini bajardilar.

BUGUNGI SONDA

Jarayon

Davr talabi 2

Bugunning gapi

Yangi innovatsion usul 3

Munosabat

Murojaatnomani o'qib ... 4

Iftixor

Sharafli burch 5

Xabardormisiz?

Xalqaro standartlar talablariga muvofiq 6

Yubiley oldidan

Ishlab chiqarish ikki baravarga oshgan edi 7

Bor gap

"Nimani eksang shuni o'rasan" 8

So'ragan edingiz

Oz miqdorda o'g'irlanganlarga qanday jazo beriladi? 9

Sport

Yil sarhisobi 10

Tafakkur qil

"Bir tiyin"lik tilak 11

IMPORTNI QOPLAB, EKSPORTNI KENGAYTIRISH – DAVR TALABI

O'zbekiston metallurgiya kombinatida ishlab chiqarishni uzluksiz rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash salmoqli hajmlarda eksportga yetkazib berilayotgan yuqori sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratmoqda. Kombinat mahsulotlarining barchasi muvofiqlik sertifikatiga ega, korxonada sifat menejmenti tizimi Milliy va Xalqaro sertifikatlash tizimida sertifikatlangan.

Barcha sohada prokat mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori. Bunyodkorlik ko'lamini kengaytish sayin, mahsulotlarimizga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda. Tahlillarga ko'ra yurtimizda bugungi kunda 4 million tonna metall mahsulotlariga ehtiyoj bor. 2026-yilga borib, bu ehtiyoj 6 million tonnaga yetishi kutilmoqda.

Mamlakatimizning metall mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining 50 foizi import hisobidan qoplanmoqda. Yana bir tomoni bunyodkorlik ishlari, sanoat loyihalari tannarxi ham mana aynan metallurgiya sohasini

rivojlantirish, unga doir mahsulotlarni mahalliyashtirishga bog'liq. E'tibor bering, uy-joy qurilishi tannarxida metall mahsulotlarining ulushi 15 foizni, mashinasozlikda esa 40 foizni tashkil qilishi hisob-kitob qilingan. O'z o'zidan ma'lumki xomashyoning narxi tayyor mahsulot narxiga ta'sir etmasdan qo'ymaydi.

Mana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda O'zbekiston metallurgiya kombinatida asosan import o'rnini bosuvchi mahsulotlar parametrlari va o'zlashtiriladigan mahsulotlar sifatini talab darajagacha yetkazish bo'yicha

amaliy choralar ko'rilmoqda.

Davlatimiz rahbari yaqinda – Oliy majlis va o'zbek xalqiga Murojaatnomasida iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yaxshilashni asosiy vazifalardan biri sifatida ta'kidladi.

Kombinatimizda ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda qator investitsiya loyihalari amalga oshirilib, yangi sexlar ishga tushirildi, mavjudlari modernizatsiya qilindi.

Qariyb 5 million dollarlik loyiha evaziga Navli prokat sexiga xorijdan termo-mustahkamlash liniyasi keltirilib, ishga tushirildi. Yiliga 500 ming tonna termomexanika usulida mustahkamlangan A500 va A800 sinfiga mansub bo'lgan armaturalar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi.

(Davomi 2-sahifada)

IMPORTNI QOPLAB, EKSPORTNI KENGAYTIRISH – DAVR TALABI

(Davomi. Boshi 1-sahifada)

Iqtisodiy samaradorlik haqida gapiradigan bo'lsak, termo-mustahkamlash jarayonida kimyoviy moddalar tejaligini hisobiga armatura tannarxi kamayadi. Dastlab yiliga 300 million dollarlik import o'rnini to'ldirishni chamalagan edik. Bugungi kunda termomexanika usulida mustahkamlangan 15 ming tonna mahsulotni Boltiq bo'yi davlatlariga eksport qilishga erishdik.

Kombinatda avvallari xorijdan import qilingan, ferroqotishmalar ishlab chiqarish va elektrda po'lat eritish uchun zarur bo'lgan yuqori omli koks ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qozog'istonning "Rentan" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha ferroqotishmalar va po'lat quyimalarning tannarxini mos ravishda tonnasiga 40,0 va 3,0 dollargacha kamayishiga xizmat qiladi. Bu yiliga 4 200,0 ming dollar valyuta mablag'lari tejalandi degani.

Hozirgi sharoitda mamlakatimizda ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatidan kengroq foydalanish muhim hisoblanadi. O'tgan yilning 24-yanvaridagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi davlatimiz rahbarining qaroriga muvofiq "O'zmetkombinat" AJ va Navoiy mashinasozlik zavodi o'rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasi aloqalari kengaytirildi. Natijada O'zbekistonda birinchi marta og'irligi 42 tonna bo'lgan butlovchi qism tayyorlanmasini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Nafaqat kombinatimizda, balki mam-

lakatimizda ham eng katta investitsiya loyihalari-dan biri bo'lgan Quyuv-prokat majmuasini qurish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Bu loyiha asosida yiliga 1,04 million tonna po'lat o'ramlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Uni amalga oshirsak kombinatda ishlab chiqarish ikki baravarga oshadi.

Butun dunyoda eng qimmatbaho mahsulot, taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch, iqtisodiyotni rivojlantiruvchi drayver – ilm-fandir. Hozirgi kunda har bir soha yoki tarmoqlar rivojini ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mana shunday hamkorlik ishlab chiqarish jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi.

Talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha tasdiqlangan manzilli dasturga muvofiq hozirgi kunda "O'zmetkombinat" AJ tomonidan yangi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha 16 ta loyiha kiritildi. Ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog'liqligini

ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi hamda Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Umumiy va noorganik kimyo instituti, "MISiS" Milliy tadqiqot texnologik universitetining Olmaliq filiali, O'zbekiston – Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi mutaxassislari bilan hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirilmoqda.


Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilar aholi jon boshiga har yili 1 foizga oshib bormoqda. Energetika, rangli va qora metallurgiya, kimyo sanoati va qurilish industriyasi ob'ektlari chiqindi hosil qiluvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalar hisoblanadi. Tabiat muhofazasi me'yori tobor kuchayib borayotgan bir davrda sanoat chiqindilarini utilitatsiyasi muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Uni hal qilishning samarali usullari bu chiqindilarni qayta ishlab, turli xil xo'jalik sohalari uchun zarur bo'lgan xomashyo sifatida foydalanib tegishli mahsulotlarni olish muhim jarayon sanaladi.

Kombinatda issiq holdagi shlaklarni qayta ishlash natijasida shlakdan metallni ajratib olish texnologiyasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ham ekologik jihatdan foydali, ham katta iqtisodiy samara beradi.

Barcha hududlarda metall ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etilishi soha rivoji uchun muhim sanaladi. Shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlari uchun zamonaviy metall konstruksiyalar ishlab chiqarish hamda malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish metallurgiya sanoatini zamon talablariga mos rivojlantirishda asosiy omil bo'ladi.

Eksportbop va import o'rnini bosadigan, jahon bozorlarida raqobatbardosh, zamonaviy iste'mol bozori talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, bu orqali esa katta miqdordagi valyutani tejash, mahalliy xomashyo va mineral resurslardan foydalanishda innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish bizning asosiy vazifamiz. Mazkur yo'nalishda bor salohiyatimizni ishga solishimiz zarur. Imkoniyatlar esa yetarli.

Rashid PIRMATOV,
"O'zmetkombinat" AJ
boshqaruv raisi – bosh direktor.



KOMBINAT RAHBARLARINING KENGAYTIRILGAN YIG'ILISHIDA

SARHISOB, TAHLIL VA USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Kombinat rahbarlarining kengaytirilgan yig'ilishida yakunlar tahlil qilindi, 2023-yilning ustuvor vazifalari belgilandi.

Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ rahbariyatining 2022-yil yakunlari hamda 2023-yil rejalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Kombinat boshqaruv raisi – bosh direktor R. Pirmatov, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari – ijrochi direktor D. Ahmedovlar rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishda kombinatning barcha tarkibiy bo'linmalari faoliyati ko'rib chiqilib, kombinatning ijobiy natijalari qayd etildi va ko'plab ko'rsatkichlar bajarilganligi aytib o'tildi.

Yig'ilishda kombinatning 2022-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari bilan bir qatorda 2023-yil va o'rta muddatli istiqboldagi rejalarini ham ko'rdi.

Yig'ilishda kombinat rahbariyati tomonidan barqaror iqtisodiy o'sishni hamda korxonada xodimlari uchun xavfsizlik va munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, qulay investitsiya muhitini yaratish va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga ustuvor ahamiyat berish zarurligi ta'kidlandi.

Kombinatda Respublika hududiga sovuq havo massasi kirib kelgani sababli, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga qarshi xavfsizlik va barqaror ishlab chiqarish holatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, korxonada ishchi-xodimlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish kun tartibidagi asosiy vazifalar qatoridan joy egalladi.

ASOSIY VAZIFA: QULAY MEHNAT SHAROITLARI YARATISH

Metallurglar madaniyat saroyida kombinat boshqaruv raisi - bosh direktor R. Pirmatov hamda kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi I. Qodirovlar boshchiligidagi va bir guruh mas'ul rahbarlar ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish ham ana shunga bag'ishlandi. Yig'ilishda haroratning keskin pasayib ketishi vaqtida kombinat tarkibiy bo'linmalarining uzluksiz ishlashini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlar ko'rib chiqildi.

Anomal sovuq davrida kombinat ishchi-xodimlari uchun qulay mehnat sharoitlari yaratilgan bo'lib, yig'ilishda

kombinat ishlab chiqarish sexlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun, kombinat isitish tizimining kerakli haroratda, barqaror ishlashi, kombinat ishchi-xodimlari yuvinish xonalari-ning issiq suv bilan doimiy ta'minlanishi hamda sifatli va o'z vaqtida taomlanish kabi masalalarni muntazam nazorat qilish va yuqoridagilar yuzasidan vujudga keladigan muammolarni joyida ijobiy hal qilish kerakligiga urg'u berildi.

Buning uchun har bir tarkibiy bo'linma rahbar va mas'ul xodimlari belgilangan chora-tadbirlar asosida ishlarni tashkil etishi zarurligi ta'kidlandi.

IQTISODIY SAMARAGA ERISHISHNING INNOVATSION USULI

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarisiz korxonalar faoliyatini rivojlantirish masalasini tasavvur qilish qiyin. Chunki axborot kommunikatsion texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda, bu esa korxonalarga o'z faoliyatiga yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni kiritish, yuqori texnologiyalardan foydalanib raqobatbardoshlikni oshirish vazifalarini yuklaydi.

Kombinatimizda ham axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va ishlab chiqarishda axborot tizimlarini takomillashtirishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"O'zmetkombinat" AJda axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish maqsadida, "Korxonani boshqarish axborot tizimi" (KBAT)ni joriy etish loyihasini amalga oshirish belgilandi. KBATni joriy etish loyihasi doirasida kombinatda savdo-sotiq jarayonlari avtomatlashtirildi, buxgalteriya hisobotlari takomillashtirildi, kombinat nazorat o'tish joylarida xodimlarning kirish-chiqish jarayonlarining hisobotlari avtomatik tarzda shakllantirildi. Shuningdek, xodimlarni boshqarish, ish haqi hisobi, byudjetlashtirish, moliya xo'jaligi, tovar-moddiy boyliklar zahirasi faoliyatlari ham avtomatlashtirildi.

2-navli prokat sexida "Stan-300" rusumli sovutgich uchastkasining mexanizmlariga avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi joriy qilindi. Buning natijasida mexanik uskunalarni ta'mirlash xarajatlari 10 foizga pasayib, 1,2 mlrd. so'mdan ortiq mablag'ni tejash imkoni berildi.



Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari laboratoriyasi muhandislari tomonidan "DSP - 100 UMK" pechining energiya texnologiyasi rejimi uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqildi. Natijada metallni eritish vaqti 58,9 daqiqadan 56,5 daqiqagacha qisqardi hamda pechning ishlab chiqarish unumdorligi 4 foizga oshdi.

Ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexida ishlab chiqarish hisobini avtomatlashtirish axborot tizimini joriy etish, texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlarini KBAT tizimiga ulash orqali inson omilini (xatoliklarni) qisqartirish, ishlab chiqarish hisobotlarini tezkor

va yuqori aniqlikda olishga erishildi.

Xaridorlar bilan munosabatlarida shaffoflikka erishish maqsadida hamda xaridorlar o'rtasidagi hujjatlar aylanmasi uchun mo'ljallangan "E-navbat" axborot tizimi ishga tushirildi. Bu tizim orqali masofadan turib elektron shaklda kombinat hududiga kirib-chiqish uchun ruxsatnoma olish tartibi yo'lga qo'yildi.

Mazkur tizimni yanada takomillashtirish maqsadida "Kombinat oshxonalarida "E-oshxona" menyuga buyurtma berish quyi axborot tizim", "XIMICH mahsulotini sotish quyi axborot tizim" hamda "Xodimlarning malakasini oshirish quyi

hujjat aylanish tizimi joriy etilgan. Bugungi kunda kombinatning 450 nafardan ortiq xodimlari bu tizimdan foydalanib kelmoqda. Shuningdek, kombinatda "e-xat", "ijro.gov.uz", "edo.ijro.uz" va "@uzbeksteel.uz" domeni ostida korporativ pochta tizimi joriy etilgan. Kombinatda elektron ma'lumotlarni boshqarish va elektron hujjat aylanish tizimi joriy etilishi orqali qog'oz mahsulotlari sarfi kamayib, yiliga 1 mlrd. so'm mablag' tejatlashiga erishiladi.

Axborot texnologiyalari sohasida bulardan tashqari yana bir qator loyihalar amalga oshirildi. Bu sohani rivojlantirish orqali kombinatda katta mablag' iqtisod qilinadi. Kombinat boshqaruvida ma'lumotlar shaffofligi va boshqaruvda qarorlar qabul qilishda aniqlik va tezkorlikka erishiladi. Kombinat hayotida raqamli texnologiyalar yanada keng tatbiq etilishi ishlab chiqariladigan mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishi uchun sifat ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro reytingda yangi pog'onalariga ko'tarilishiga xizmat



tizim"lari foydalanishga topshirildi.

Quyi tizimlarning ishga tushirilishi natijasida yagona platformaga ega bo'lgan "Korxonani boshqarish axborot tizimi"ni joriy qilishga erishildi.

Kombinatda elektron



ENG YUQORI NATIJA

RANGLI METALLAR ISHLAB CHIQRISH SEXIDA



Rangli metallar ishlab chiqarish sexi o'tgan yilda mahsulot tayyorlash bo'yicha namunalari natijalarga erishdi. Bu jamoa belgilangan rejalarini muddatidan oldin bajarib, eng yuqori natijalarni qo'lga kiritdi.

Sexda aksariyat o'z ishining ustalari mehnat qilishadi. Bu yerdagi tajribali ustalar sexga kelgan yosh kadrlarga o'zlarining bor bilimlarini, kasb sirlarini o'rgatishmoqda. Ishlab chiqarishda mehnat qilib boshqalarga o'rnak bo'lish oson ish emas. Buning uchun soha xodimlaridan o'z ishiga mas'uliyat bilan qarash talab etiladi. Mutaxassislarining harakati bilan sexda ishlar kutilganidek ketmoqda.

25,1 million dollarlik rangli metall mahsulotlari eksportga jo'natildi.

Ular Rossiya, Belarus, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkiya, Ozarboyjon davlatlariga eksport qilindi. Tayyor mahsulotlarning 87 foizi eksportga jo'natildi.

Eksportchilar soni ko'payib borayotganligi bu sexda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati yuqo-

Sexda 2022-yilda belgilangan rejalar muddatidan oldin bajarildi. Ayniqsa, mahsulotlarni eksport qilishda erishilgan natijalar quvonarli. 2021-yilda bu sexda 16 million 850 ming AQSH dollari miqdorida rangli metall mahsulotlari eksport qilingan edi. Bu natija 2006-yilda ishga tushirilgan sexning o'z tarixidagi ishlab chiqarishda qo'lga kiritgan eng yuqori ko'rsatkich - rekord hisoblana-di. 2022-yil yakunlari bo'yicha bu rekord yangilandi. O'tgan yilda sexdan

riligidan darak beradi.

Rangli metall mahsulotlari ishlab chiqarish sexi jamoasi mahsulot tayyorlash hajmini ko'paytirish, uning tannarxini kamaytirish, sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Rangli metallar ishlab chiqaruvchilar hamkorlari bilan o'zaro ishonchli va foydali aloqani yo'lga qo'yishgan.

Sexda ishning namunalari tashkil etilayotganligi, butun jamoaning yakdillikda sidqidildan qilayotgan mehnatlari ham muvaffaqiyatlar omili bo'lmoqda.

Diyor ZULFIQOROV.



MUROJAATNOMANI O'QIB ...

MUHIM VAZIFALAR
BELGILAB BERILDI

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasini butun xalqimiz qatori biz - metallurglar ham katta e'tibor bilan tingladik.

Murojaatning mazmun-mohiyati yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar davomiyligini ta'minlashga, jamiyat taraqqiyotini yanada yuqori darajaga ko'tarishga qaratildi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Murojaatnomada qayd etgan tashabbuslar mamlakat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, ko'plab sohalarni qamrab oladi. Qolaversa, qaysi soha tilga olinmasin, albatta, keng tahlil, muammolar, ularni hal qilish yo'llari va aniq vazifalar belgilab berilishi bilan diqqat-e'tiborimni tortdi.

ENERGIYA RESURSLARIDAN
SAMARALI FOYDALANILADI

Murojaatnomada energiya resurslaridan samarali foydalanishda viloyatimizning yirik korxonalarida quyosh elektr stansiyalarini o'rnatishga e'tibor qaratildi.

"... Toshkent viloyatida Olmaliq, Bekobod kombinatlari va boshqa yirik korxonalar o'z ehtiyojlari uchun 1 ming megavattli quyosh elektr stansiyalarini o'rnatib, yiliga 2,5 milliard kilovatt soat elektr ishlab chiqariladi. Bu orqali Toshkent viloyatining qariyb 30 foiz elektr iste'moli ta'minlanadi va 500 million kub metr gaz tejaladi" - dedi davlat rahbari.

Umuman, kelgusi uch yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatiladi. Ushbu maqsadlarda 2 milliard dollar miqdorida investitsiya jalb qilindi. Buning hisobidan ularning 60 foiz elektr va gaz iste'moli "yashil energiya"ga o'tkazilishi, aholi xonadonlarida esa, quyosh paneli o'rnatishga ajratiladigan subsidiyalar hajmi 2 barobar ko'paytirilishi ta'kidlandi.

Demak kombinatda, uylarimizda ham "yashil energiya"dan foydalanishimiz uchun oldinga katta qadam tashlashimiz kutilmoqda.

XALQ BOY BO'LSA, DAVLAT
HAM BOY BO'LADI

2023-yilda respublikamizda katta xususiy lashtirish boshlanadi. 1 mingga yaqin korxonalar savdoga chiqarilar ekan. Prezident topshirig'i bilan bu yil eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o'z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo'ladi. Odamlarimiz o'z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo'ladi. Bu borada kombinatimizda ham

ishlar boshlab yuborilgan. Yaqinda Toshkent Respublika Fond Birjasida "O'zmetkombinat" AJning aksiyalarini qo'shimcha ommaviy joylashtirishga (FPO) tayyorgarlik ko'rish boshlanishiga bag'ishlangan taqdimot muvaffaqiyatli o'tkazildi.

BUNDAY NATIJALAR ILGARI
BO'LMAGAN

2022-yilda ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi.

Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi.

Navbatdagi masala- 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadimiz bo'ladi. Eksport hajmi tariximizda ilk bor 23 milliard dollardan ortadi.

O'tgan yili kombinatimizda mahsulotlarni eksport qilish rejasi ziyodi bilan bajarildi. Shu bilan birga Yevropa Ittifoqi davlatlarida yangi bozorlar o'zlashtirildi. Joriy yilda metallurglarni tayyor mahsulotlar eksportini oshirishda katta vazifalar kutib turibdi.

Prezidentimiz Murojaatnomasida dolzarb vazifalar, yangi g'oyalari ilgari surildi. Yangicha qarash, yangi g'oya va rejalargina davlatning istiqboliga, vatan ravnaqi va xalqimizning farovonligiga daxldor harakatlarni, amaliy natijalarni belgilab berishi aniq.

Diyor OLMOSOV.

TIL - MILLAT
KO'ZGUSI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi, degan so'zlari meni juda quvontirdi.

- Albatta, chet tilini bilish - zamon talabi. Ammo ona tilini bilishga majbur qilish kerak. Mening farzandim chet tillarini biladiyu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O'zbekistonga ma'qul emas. Chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur, - dedi davlat rahbari.

TILIMIZGA E'TIBOR YANADA
KUCHAYTIRILADI

ONA TILINI KIM ULUG'LAYDI

O'z millatini, yurtini e'zozlagan har bir kishi ona tilini ulug'laydi. Milliy g'ururi bo'lgan inson o'z ona tilida ravon so'zlasha olishi va yoza bilishi shart. Qancha ko'p til bilsangiz, shuncha yaxshi, lekin, birinchi navbatda, ona tilini yaxshi bilmoq zarur, ya'ni boshqa tillarni bilishimiz o'z ona tilimizni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak.

NEGA O'ZBEK TILINI O'RGANA
OLISHMAGAN?

Men sobiq ittifoq armiyasida xizmat qilganimda bir narsa juda alam qilgan. Kavkazdan, Boltiqbo'yi respublikalaridan xizmatga kelgan rusiyabonlar, albatta, o'zlari yashagan joylardagi mahalliy tilni bilishardi. Biz tarafdin borganlar esa bilishmasdi.

Kombinatda ham ahvol shu. Aksariyat rusiyabonlar o'zbek tilini bilmas edi. Bir kuni hamkasbim "За металл" gazetasida ko'p yillar muharrir bo'lib ishlagan A. A. Degteriyovdan so'radim:

- O'zbekistonda yashaysiz, o'zbeklar bilan ishlaysiz-u nega o'zbek tilini o'rganmaysiz?

U men uchun umuman kutilmagan javob berdi.

- Kombinativimiz ishchi-xodimlari yoki qo'shnilarim bilan o'zbekcha gapirishga harakat qilsam ular ruscha javob qilishadi. Hatto ba'zilar ruschani buzib gapirganlaridan hech nima tushunmasdim. Ulardan o'zbekcha gaplashaylik desam ham chala-chulpa bo'lsada ruscha gapirishga harakat qilaverardilar. Oxiri xafsalam pir bo'lib o'zbek tilini o'rganolmadim, - degan edi.

AYB BIZDA

Ana shunda tushungan edimki, o'zbek tilini boshqalar o'rganolmasliklariga ular emas, balki o'zimiz aybdor ekanmiz. Yaqin yaqingacha

yig'ilishlarimizda 90 foizdan oshiq o'zbeklar o'tirsa ham yig'ilish rus tilida olib borilardi. Biz o'z aybimiz bilan ona tilimizning nufuzini pastga tushirib qo'ydik.

2019-yilda bir guruh "ziyolilar" O'zbekistonda rus tilini rasmiy til darajasiga ko'tarish, "Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartirish kiritib, unga o'zbek tili kabi huquqiy maqom berish taklifi bilan chiqishdi. Albatta, kutilmagan chiqish millatimiz ilg'orlari, ziyolilari tomonidan noroziliklarga sabab bo'lgandi... Shunga aytishadida "O'zingdan chiqqan baloga, qayga boray davoga", deb.

Shu mamlakatda yashagan barcha millat, elat vakillari o'zbek tilini, mahalliy xalqning adabiyoti va san'atini, boy tarixini, ilmiy merosini bilishi bugungi davrning talabi. Biz ularga til o'rganishlariga yordam berishimiz kerak.

O'ZIMIZDAN BOSHLAYLIK!

Biz esa aksincha ish tutib o'zimizni ham, tilimizni ham xarob qilib qo'yishimiz mumkin edi. Yaxshi hamki Prezidentimiz bor ekan. Ona tilimizning obro'-e'tiborini ko'tarish uchun juda ko'p harakat qilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusini qo'llab-quvvatlab, ona tilimizning nufuzini ko'tarishga harakat qilmasak, kimdir chetdan kelib bu ishni qilib bermaydi. Tilimizga bo'lgan munosabatni o'zimizdan boshlaylik. Zero, ota-bobolarimiz aytganidek, ona tili - millat ruhi va jamiyat uyg'oqligining ko'zgidir.

O'zbekistonda yashab, ota-onasi o'zbek bo'lib, bu tilda gaplashmaslik, ona tilimizni nazar-pisand qilmaslik, unga ahamiyat bermaslik esa millatga, elga befarqlikdir.

Prezidentimiz aytganidek, "Mening farzandim chet tillarini biladiyu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O'zbekistonga ma'qul emas".

Ismat DIYOROV.

OSOYISHTALIGIMIZ POSBONLARI SHARAFLANDI

Sizu bizning bugungidek tinch, xotirjam hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqda. Mana shunday mas'uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan o'g'lonlarimizni har qancha e'zozlasak, ko'kka ko'tarsak arziydi.

Mamlakatimizda davr talabi va jahon andozalariga javob beradigan Qurolli Kuchlarni barpo etish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, barqaror va izchil demokratik taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo'lgan milliy armiyamizni shakllantirish yo'lida keng ko'lamli va mohiyatan ulkan ishlar amalga oshirildi. Vatanimiz xavfsizligini mustahkamlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirishdek g'oyat muhim soha doimo diqqat markazida. Davlat rahbari yaqinda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida "Milliy xavfsizlikni ta'minlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish borasidagi ishlarimizni

yangi bosqichga olib chiqamiz", deb alohida ta'kidlab o'tdi.

Vatan – bu insonga ato etilgan eng ulug' ne'mat. Vatanni himoya qilish esa sharaflil va muqaddas vazifa. Yurtimizda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kunini bayram sifatida katta tantana bilan nishonlash o'ziga xos an'anaga aylangan.

"O'zmetkombinat" AJda ham Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bir qator tadbirlar o'tkazildi. Ana shunday tadbirlardan biri Metallurglar madaniyat saroyida bo'lib o'tdi. Tadbirda kombinat boshqaruv raisi – bosh direktorning umumiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Akmal Sharipov va kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Ibrohim Qodirovlar so'zga chiqib barcha



yig'ilganlarni bayram bilan samimiy qutlab o'z tilaklarini bildirishdi.

Shundan so'ng bayram munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi toifalangan ob'ektlarni qo'riqlash qo'mondonligiga qarashli harbiy qism, kombinat Idoraviy harbiylashtirilgan qorovulligi hamda kombinat ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish

bo'limlarining bir guruh xodimlari kombinat va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan "Tashakkurnoma" hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Tadbirda Metallurglar madaniyat saroyi ijodiy jamoalari tomonidan konsert dasturi namoyish etilib, bayram qatnashchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashildi.

Inom XOJIMURODOV.



“BAXT UYI” ZAMONAVIY QIYOFA KASB ETDI

Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi metallurglarga ko'plab qulayliklar yaratish uchun yangidan yangi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. So'nggi vaqtlarda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi kombinat boshqaruvi bilan ishchi-xodimlarga xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish, ijtimoiy va sport sohalari ob'ektlariga alohida e'tibor qaratmoqda. O'tgan yil "Metallurg" sport majmuasida joylashgan Suzish havzasi tantanali ravishda ochildi.

Joriy yilda esa "Baxt uyi" to'yxonasi zamonaviy uslubda ta'mirlanib foydalanishga topshirildi. 2005-yili tantanalari va marosimlar o'tkazish uchun 350 o'ringa mo'ljallangan "Baxt uyi" bunyod etilib, ko'p yillar davomida metallurglar, shahrimiz aholisiga xizmat ko'rsatdi. Lekin oxirgi yillarda ancha ta'mirtalab bo'lib qolgan edi. 2022-yilning noyabr oyidan boshlab to'yxonada kombinat boshqaruvi bilan hamkorlikda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan qurilish ishlari olib borildi.

Yangidan zamonaviy usulda ta'mirlanib foydalanishga topshirilgan bu shinam to'yxona 340 va 412 o'ringa mo'ljallangan. To'yxona turli xil to'y marosimlari va bayram tadbirlari o'tkazish uchun mo'ljallangan zarur jihozlari bilan to'liq ta'minlandi. Metallurglar uchun qulayligi shundaki ular mazkur to'yxonadan foydalanishda imtiyozga ega bo'lishadi.

Uning ochilishiga bag'ishlangan tadbirga taklif etilgan mehmonlar uchun dasturxonlarga milliy taomlar tortildi. Yoshi ulug' qariyalarimiz Vatanimiz ravnaqi hamda kombinatimiz faoliyati-



ga muvaffaqiyat tilashib, o'tganlar haqiga duo qilishdi.

– "Baxt uyi" avvalgidan ham chiroyli bo'libdi. Uning dizayni, jihozlari zamonaviy talablarga to'liq mos keladi, – deydi mehnat faxriysi Sharip Abdurasulov. – Bu mas-kanda to'y va marosimlar o'tkazish uchun barcha sharoitlar qilinganligiga amin bo'ldik. "Baxt uyi" to'yxonasi shahrimiz aholisi va kombinatimiz ishchi-xodimlarining hamisha quvonchli kunlariga xizmat qilsin!

Sardor BOBOEV.

XALQARO STANDARTLAR TALABLARIGA MUVOFIQ

“O‘zmetkombinat” AJ tomonidan 2022-yilda texnik jihatdan tartibga solish, me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Mahsulotlarning sifat va xavfsizlikka muvofiqligini tasdiqlash milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlari bu fikrimizning isbotidir.

Ta‘kidlash joizki, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning barcha sinovlari ISO/IEC 17025-2019 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tgan kombinat markaziy laboratoriyasida o‘tkaziladi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun muvofiqlik sertifikatlarining mavjudligi “O‘zmetkombinat” AJga iste‘molchilarning ishonchini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda “O‘zmetkombinat” AJ mahsulotlari ham ichki, ham tashqi bozorda keng tanilgan. Xalqaro bozorda sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchi sifatida e‘tirof etil-

son) talablariga, shuningdek O‘zbekiston ISO 9001:2018 milliy standarti (0012072-son) talablariga muvofiqligi sertifikatlari berildi.

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan sifat menejmenti tizimining mavjudligi kombinatga ISO 9001ning asosiy talablaridan biri bo‘lgan faoliyatining barcha jabhalarida doimiy takomillashtirishga intilish imkonini beradi.

2021-yil dekabr oyidan boshlab kombinat GOST 34028-2016 “Temir-beton konstruksiyalar uchun armatura. Texnik shartlar” davlatlararo standarti talablariga muvofiq ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh va talabga ega bo‘lgan A500 sinfidagi, termik mustahkamlangan armatura ishlab chiqarish texnologiyasini joriy qildi va o‘zlashtirdi. Ushbu turdagi mahsulot “Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi Umumiy texnik reglament (O‘zTR.319-004: 2015), “Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi Maxsus texnik reglament, “Qurilishda ishlatiladigan qora metallardan metallurgiya mahsulotlarining xavfsizligi” (MTR.0010-2020), GOST 34028-2016 “Temir-beton konstruksiyalar uchun armatura. Texnik shartlar”ning sifat va xavfsizligi barcha talablariga muvofiqlik va malaka sinovlaridan o‘tgan.

2022-yil may oyida kombinatda termik mustahkamlangan armaturaning Latviya standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlash va shakli po‘latning Yevropa standarti talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha ishlar ham amalga oshirildi. Latviya sertifikat-

kamlangan armatura Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya standartlari talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo‘yicha ishlar olib borildi. Tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, Shvet-siyaning “Globe Cert AB” sertifikatlashtirish organi kombinatga muvofiqlik sertifikatlarini berdi.

2022-yil dekabr oyida “O‘zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasi tomonidan 10÷32 mm termik mustahkamlangan armaturalarning payvandlash xossalari A500C sinfiga muvofiqligi baholandi. Sinov va tegishli tartib-taomillardan so‘ng 2022-yil 30-dekabrda 10÷32 mm termik mustahkamlangan armatura ishlab chiqaruvchi kombinatga O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimida A500C sinfiga muvofiqlik sertifikati berildi.

2023-yil yanvar oyida kombinatda “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasi bilan birgalikda termik mustahkamlangan armaturaning plastik xossalari GOST 34028-2016 “Temir-beton konstruksiyalar uchun armatura. Texnik shartlar” davlatlararo standarti talablariga muvofiq baholash ishlari yakunlandi.

2023-yil 11-yanvardagi ish natijalariga ko‘ra, kombinatga O‘zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish tizimidagi A500CH va A500CE sinflari o‘ta yuqori (H) va yuqori (E) plastik xususiyatlarini tasdiqlovchi muvofiqlik sertifikati berildi.

Ayni paytda “O‘zmetkombinat” AJning termik mustahkamlangan armaturalarini GOST 34028-2016 da ko‘zda tutilgan metodologiya bo‘yicha takroriy tsiklik yuklar ostida charchoqqa chidamliligini xorijiy akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyada sinovdan o‘tkazish masalasi ishlab chiqilmoqda. Termik mustahkamlangan armaturalarning A500CHY va A500CEY sinflariga muvofiqligini tasdiqlash va O‘zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida muvofiqlik sertifikatini olish masalasi ishlab chiqilmoqda.

A500CHY va A500CEY sinflaridagi termik mustahkamlangan armaturalarni ishlab chiqarishda qo‘shimcha xossalari egaligi (payvandlash qobiliyati “C”, o‘ta yuqori “H” va yuqori “E” plastiklik, shuningdek, charchoqqa chidamliligi “Y”) “O‘zmetkombinat” AJ raqobatbardoshligini oshiradi. Mahsulotlar qurilishda, ayniqsa, zilzilaga moyil bo‘lgan hududlarda ishlatiladigan metall buyumlar xavfsizligiga qaratilgan iste‘molchilarning o‘sib borayotgan talablariga javob beradi.

Sarvinoz SHERALIYEVA.



ish uchun korxonada sifat menejmenti tizimi faoliyat ko‘rsatmoqda. Sifat menejmenti tizimi ISO 9001:2015 xalqaro standarti talablari asosida takomillashtirilmoqda.

2022-yil 14 – 17-mart kunlari “QMSCERT” Xalqaro sertifikatlashtirish organining rasmiy hamkori – “MANAGEMENT CERTIFICATION” sertifikatlashtirish organining auditorlar jamoasi sifat menejmenti tizimining qayta sertifikatlashtirish auditini o‘tkazdi. Audit natijalariga ko‘ra kombinatga sifat menejmenti tizimining ISO 9001:2015 xalqaro standarti (220519-14-

lashtirish organi “Inspecta Latvia” tomonidan sertifikatlashtirish auditlari va sinovlari natijalariga ko‘ra kombinatga muvofiqlik sertifikatlari berildi.

2022-yil iyul oyida sertifikatlashtirish auditini va sinovlari natijalariga ko‘ra Litvaning “KIWA Inspecta” sertifikatlashtirish organi tomonidan kombinatga termik mustahkamlangan armaturani Litva standarti talablariga muvofiqlik sertifikati berildi.

2022-yil iyun-oktabr oylarida kombinatda diametri 10÷25 mm bo‘lgan termik mustah-

O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI

CHIZIQCHA BILAN YOZISH

51. juft so‘z va takror so‘z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: el-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to‘rt, o‘n-o‘n beshta (10-15 ra), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o‘ylab-netib, so‘ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), bal-and-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

Eslatma:

1) Juft so‘zdan qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: baxt-saodatli, xayr-xo‘shlashmoq kabi;

2) Juft so‘z qismlari orasida -u (-yu) bog‘lov

so‘zi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: do‘st-u dushman (do‘st-dushman), kecha-yu kunduz (kecha-kunduz) kabi.

3) Yetakchi va ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: yozdi-oldi, borasan-qo‘yasan, uxlabman-qolibman kabi.

52. Belgini kuchaytiruvchi qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, to‘ppa-to‘g‘ri, babbaravar kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin oppoq so‘zi qo‘shib yoziladi).

53. So‘zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: ko‘chama-ko‘cha, uy-ma-uy, rang-barang, dam-badam kabi.

Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi. Ro‘baro‘, darbadar kabi.

54. Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarji-

ma qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: unter-ofitser, kilovatt-soat kabi.

55. -chi, -a (ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi: sen-chi, bo-raylik-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo‘y-e, yashang-e, o‘g‘lim-ey, keldi-yey kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina) yuklamalar o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘shib yoziladi: keldimi?, keliboq, o‘ziyoq, ko‘rganov, ko‘rdiyov, mengina, qo‘shiqqina kabi.

56. Tartib son raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi: 7-sinf, 5- A sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o‘quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri kabi. Tartib sonini ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: XX asr, X sinf kabi.

O‘ZBEKISTONNING ENG YIRIK KORXONALARIDAN BIRI

“O‘zmetkombinat” Ajning 80 yillik yubileyi yaqinlashib kelmoqda. 1944-yil 5-mart kuni Marten sexida birinchi po‘lat eritmasi olindi. Shu sana “O‘zmetkombinat”ning tug‘ilgan kuni sifatida nishonlanadigan kun bo‘lib qoldi.

Tarixan qisqa davrda quruvchi va metallurglarning fidokorona mehnatlari tufayli Sirdaryo sohili, “Dalvarzin” dashtlari orasida, afsonaviy Farhod qoyalariga yondosh joylashgan, kuchli shamollar yo‘lidagi Begovot qishlog‘ida, suronli urush yillarida, umumxalq hashari yo‘li bilan O‘zbekiston metallurgiya zavodi qurildi.

Mustaqillikning dastlabki yillari bozor iqtisodiga o‘tish arafasida ko‘p korxonalar uchun qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. Lekin O‘zbekiston metallurgiya kombinati barcha qiyinchiliklarni yengib, to‘g‘ri yo‘lga tushib oldi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishi, transporti va ijtimoiy infrastrukturasi rivojlangan O‘zbekiston metallurgiya kombinati yetakchi metallurgiya kompaniyalari qatoridan munosib joy egallab, O‘zbekiston Respublikasi sanoatining eng yirik korxonalaridan biriga aylangan.



YANGI QURILMALAR UNUMDORLIKNI OSHIRGAN EDI

USTOZDAN O‘TGAN SHOGIRDLAR

Korxonamiz Ikkinchi jahon urushining og‘ir yillarida qurilib, ishga tushirildi. Bu ish yurt-doshlarimiz matonati mehnati evaziga amalga oshirildi. Zavod ishga tushganidan so‘ng o‘zbek metallurglari ko‘p o‘tmay o‘zlari uchun yangilik bo‘lgan bu sohada ham boshqa sobiq ittifoq respublikalaridagi hamkasblaridan ham o‘zib ketishdi.

O‘tgan asrning 60-yillarida po‘lat eritishda, 70-yillarida prokat mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘shirishga erishildi. Bunga ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, sexlarni qayta qurish va zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash tufayli erishildi.



ENG KATTA YUTUQ

Zavod o‘sha davrdagi fan-texnika yutuqlarini, metallurgiya sohasidagi yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiriq eta borib, barcha ko‘rsatgichlar bo‘yicha sobiq ittifoq qora metallurgiya vazirligi korxonalarida orasida oldingi o‘rinlarda bormoqda edi. Eng katta yutuq 1962-yil turdosh korxonalar ichida birinchilardan bo‘lib ishga tushgan uzluksiz po‘lat quyish qurilmasi (UPQQ) bo‘lgan. Uning afzalliklari juda katta edi. Eng avvalo u og‘ir qo‘l mehnatini yengillashtirgan. Ilgarigi “sifon”lar yasash uchun ishlatilgan o‘tga chidamli g‘ishtlarni, “изложница” uchun ishlatilgan cho‘yanni tejashga va po‘latni quyish vaqtini sezilarli darajada kamaytirishga olib kelgan.

ISHLAB CHIQRISH IKKI BARAVARGA OSHDI

Prokat mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘tgan asrning 70-yillarida O‘zbekiston metallurgiya zavodida faqat bitta sex faoliyat ko‘rsatar edi. Shu davrda bu prokat sexini tubdan ta‘mirlash ehtiyoji tug‘ildi. Natijada 1977-yilning dekabr oyida prokat sexini tubdan ta‘mirlash va qayta qurish ishlari boshlandi.

Bu ishlarni amalga oshirishda qo‘shni respublikalardan uch yuzdan oshiq mutaxassislar o‘zbek metallurglariga yordam berish uchun kelishdi. Bu keng miqyosli ishlarni tez amalga oshirish uchun ta‘mirlovchilar o‘rtasida o‘zaro mehnat musobaqasi qizitib yuborildi.

Ta‘mirlash ishlari tugaganidan so‘ng sexda prokat mahsulotlari ishlab chiqarish ikki baravarga oshadi. Mahsulot sifati sezilarli ravishda yaxshilanadi.



VALSALOVCHILARNING MEHNATI YENGILLASHTIRILDI

Marten va qizitish pechlarini qaytadan qurish, po‘lat quyish cho‘michlarining hajmini oshirish, 150 kub hajmga ega kislorod qurilmasining ishga tushirilishi, “300” stanini qaytadan qurish kabi qator muhim tadbirlar tufayli ishning samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga imkoniyat yaratildi.

Yil sayin ishlab chiqarish ixtirochilari, tashabbuskorlari soni oshib bordi. Qisqa vaqt

ichida “aylana”, “to‘rtburchak” armatura va temir tasmalar tayyorlash o‘zlashtirildi. Eng qiyini “burchak” prokati edi. Yetaklovchi qurilmalar yo‘qligidan mutaxassislar bir katakdan ikkinchisigacha bir ish oralig‘ida 200 tonnagacha qaynoq temirni sudrashlariga to‘g‘ri kelardi. N. A. Botnyayev va Texnika bo‘limi boshlig‘i N. I. Tereshenkov boshchiligidagi prokatchilar guruhi Dneprodzerjinskiy metallurgiya zavodida bo‘lishib, Bekobodga “burchak”larni prokatlovchi qurilma chizmalarini olib kelishdi. Bunday qurilmalarning bir jufti Temirchilik mexanika sexida qisqa vaqt ichida yasaldi va sinovdan muvaffaqiyat bilan o‘tdi. Shunday qilib, “300” stanida valslovchilarning mehnati yengillashtirildi.



XORIJLIK HAMKASBLARIGA ISH O‘RGATISHGAN

Zavodni qurishda, uni ishga tushirib, muntazam ishlab ketishida chetdan, asosan Rossiya, Ukrainadan ishchi, mutaxassislar kelib yordam berishgan bo‘lsa, 60-70-yillarga kelib, bizning ishchi-mutaxassislar chet mamlakatlarga – Hindiston, Misr, keyinroq Germaniya, Koreyaga borishib, ularga ish o‘rgatishib, o‘z mahoratlarini ko‘rsatishgan. Ular orasida marten sexida usta, so‘ng “За металл” gazetasida muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlagan A. Sklyarov, marten sexidan yana bir usta Yu. Chixirnikov, zavod markaziy laboratoriyasida ko‘p yillar boshliq bo‘lib ishlagan F. G‘afurov marten sexida yordamchi po‘lat quyuvchilikdan zavod direktorigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan R. Yusupov va boshqalar bo‘lgan.

Karimboy HAKIMOV.

MA'RIFAT O'RNINI JAHOLAT EGALLASHIGA YO'L QO'YMAYMIZ

XXI asrning dastlabki yillari ilm-fan va texnika rivojining shiddatli tus olganligi, axborot almashinuvi tizimining tubdan takomillashganligi bilan insoniyat tarixida o'ziga xos davr bo'ldi. Buning natijasida mamlakatlararo migratsiya jarayonlari birmuncha faollashdi, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, turizm va shu kabi turli maqsadlarda boshqa davlatlarga chiqishi, erkin faoliyat olib borishi uchun imkoniyatlar yanada kengaydi.

XATARLAR BIZNI HAM CHETLAB O'TMAYPTI

Ijoiy o'zgarishlar bilan bir qatorda ayrim transmilliy jinoyatlarning ortishi ham kuzatilmoqda. Bugungi kunda radikalizm, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, giyohvandlik butun dunyoga xavf solayotgan, insoniyatning tinch va osuda yashashi uchun to'sqinlik qilayotgan jiddiy muammolardan biridir. Ayni paytda sayyoramizdagi hech bir mamlakat, hech bir xalq uning ofatlaridan himoyalangan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o'tmaypti", deya ta'kidladi.

- Biz jamiyatimizda har qanday radikalashuvga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas'ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha oila, mahalla va ta'lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur, - dedi Prezidentimiz.

MAFKURADA NEGA BO'SHLIQ BO'LMAYDI?

Yoshlarni barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, yot mafkuralar, xurujlardan asrash,

ularda turli g'oyaviy tahdidlarga qarshi ko'nikmalarni shakillantirish bugungi kunda har doimgidan ham muhim. Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, doimo ma'naviy ozuqa kerak. Agar shu ozuqani o'zi yashayotgan muhitdan topa olmasa, bunday ozuqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlay boshlaydi. Ana shunda ular manfur kimsalar tuzog'iga tushib qolishlari mumkin.

Achinarlisi, g'arazli kuchlar yoshlarimizga turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazish orqali oilaning, mahallaning, butun bir jamiyatning xavfsizligiga rahna soladilar. O'z maqsadlariga erishish uchun hech narsadan qaytmaydigan manfur kimsalar



oldinlari ko'chama-ko'cha yurib, uyma-uy kirib har xil kitob, varaqalar tarqatishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirda bir joyda o'tirib ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning ongini zaharlab, o'z g'oyalariga ergashtirish uchun barcha imkoniyatlarini ishga solayaptilar.

MA'NAVYI IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH MUHIM

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning turli joylarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hammamizga ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. Shunday ekan biz yoshlar ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakillantirishimiz, kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rin tutadi.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

NIMANI EKSANG SHUNI O'RASAN

"Nimani eksang shuni o'rasan" deydi dono xalqimiz. Shunday ekan bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan imkoniyatlar, ertangi kunimiz porloq kelajagi uchun qo'yilayotgan tamal toshidir. Yoshlar tarbiyasiga e'tibor, o'zimizning kelajagimizga bo'lgan e'tibor ekanligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Diyor ZULFIQOROV.

OCHIQ SAYYOR SUD MAJLISIDAN

MAVJUD DALILLAR NIMANI KO'RSATDI?



Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi shahar IIB binosida huquqbuzar F. Kushmonovga oid ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Farrux Kushmonov "O'zmetkombinat" Ajda gazda kesuvchi bo'lib ishlagan vaqtda noqonuniy ishga qo'l uradi. Sudda aniqlanishicha 2022-yil 25-sentabr kuni u "KamAZ" rusumli, davlat raqam belgisi 20 309 GAA bo'lgan yuk avtomashinasi haydovchisi Mixail Gusainov bilan til birlashtiradi. Ular mazkur yuk avtomashinasida 676 954 so'mlik 81 kg. og'irlikdagi rangli metall (latun)ni yashirib kombinatdan olib chiqishmoqchi bo'lishadi.

Bu yuk "O'zmetkombinat" AJ hududidan olib chiqilayotgan vaqtda ushlangan. "O'zmetkombinat" AJning "Sirdaryo" IQM filiali haydovchisi M. Gusainovga nisbatan ma'muriy bayonnoma tuzilib, ma'muriy ish sudda ko'rib chiqildi.

Bu ishda uning sherigi bo'lgan F. Kushmonov huquqbuzar tariqasida sud majlisida so'roq qilinganda ayblovga iqrar bo'lmaydi.

"KamAZ" yuk avtomashinasi haydovchisi Mixail Gusainov sud majlisida guvoh tariqasida ko'rsatma berdi. U 2022-yil 25-sentabr kuni "O'zmetkombinat" AJga avtomashinasida yuk olib kirganida yoniga F. Kushmonov iltimos bilan kelganini aytadi. U rangli metallni kombinatdan olib chiqib berishi evaziga haydovchiga 100 000 so'm berishini taklif qiladi. U taklifga rozi bo'lib, avtomashinasida yashirincha yukni olib chiqayotganida qo'lga tushganligini ma'lum qiladi. Ko'rsatmalarini o'z xohishi bilan berayotganini, F. Kushmon-

ovga qarshi ko'rsatma berishdan hech qanday manfaati yo'qligini, o'zining qilmishidan pushaymonligini aytib sudga ko'rsatma berdi.

Sud bo'lib o'tmasdan, ya'ni 2022-yil 6-oktabr kunidagi xizmat tekshiruv xulosasiga ko'ra F. Kushmonov bilan mehnat shartnomasini bekor qilish, M. Gusainovning "O'zmetkombinat" AJ hududiga kirishi taqiqlanishi haqida qaror qabul qilingan.

Sud F. Kushmonov muqarrar javobgarlikdan qutilish yoki javobgarlikni yengillashtirish hamda kombinatdagi ishini saqlab qolish maqsadida aybiga iqrar bo'lmagan deb



hisoblaydi. Uning ko'rsatmalari xizmat tekshiruv xulosalari, guvohlarning ko'rsatmalari kabi ish hujjatlaridagi mavjud dalillar bilan to'liq rad etildi. Ish hujjatlari mavjud boshqa dalillar bilan to'liq o'z isbotini topgan deb hisoblaydi.

Sud, unga jazo tayinlashda huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oldi. Unga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-modda 1-qismida nazarda tutilgan doirada bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida - 600 000 so'm jarima solishga qaror qildi.

Daliliy ashyo tariqasida olingan 676 954 so'mlik 81 kg. og'irlikdagi rangli metall "O'zmetkombinat" AJga qaytarilib topshirildi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sudyasi.

OZ MIQDORDA O'G'IRLAGANLARGA QANDAY JAZO BERILADI?

Korxonaning mulkini oz miqdorda o'g'irlaganlarga qanday jazo beriladi va oz miqdorda deyilganda belgilangan mablag' qanchani tashkil etadi?

I. Soliyev.

Talon-toraj qilingan mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa (9 million so'm), bunday talon-toraj oz miqdordagi talon-toraj qilish deb hisoblanaadi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasiga asosan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toraj qilish – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha (300

mingdan 1,5 million so'mgacha) miqdorda jarima solinadi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takrorfn sodir etilgan bo'lsa – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha (1,5 million so'mdan 3 millionigacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning mol-mulkini ularning xodimi tomonidan o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish, firibgarlik yo'li bilan sodir etilgan oz miqdorda talon-toraj qilish faqat mazkur korxonalar, tashkilotlar rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.



PIYODALAR UCHUN QANDAY JARIMALAR BELGILANGAN?

Yo'lning piyodalar o'tish joyida telefonda gaplashib o'tayotganligim uchun jarimaga tortildim. Piyodalarga yana qaysi holatlar uchun jarima solinishi mumkin?

N. Alimova.

Piyodalarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signal-larga bo'ysunmasligi, ularning yo'lning harakat qismining belgilanmagan joylaridan kesib o'tishi, piyodalar yo'lning qatnov qismida, shu jumladan, piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefonda foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi va boshqa elektron vositalardan foydalanishi ta'qiqlanadi. Shuningdek, moped va velosiped haydovchilarining, ulovli aravani boshqarib boruvchi va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi ham jarima solinishiga sabab bo'ladi. Bu qoidabuzarliklar uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 138-moddasida bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismi miqdorida – 100 ming so'm jarima solinishi belgilangan.

Haydovchilarga har xil xizmat ko'rsatish maqsadida yo'lning qatnov qismida fuqarolarning turishi, yo'llarga ajratilgan mintaqaga tegrasida mol boqish – bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismi miqdorida – 150 ming so'm jarima solinadi.

Mana shunday yo'l harakati qoidalarining buzilishi avariya holatini vujudga keltirsa, — piyodalarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida – 300 ming so'm jarima solishga sabab bo'ladi.



Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.



AYBDORGA QANDAY CHORA KO'RILADI?

Korxonaning yoki o'zganing mulkiga ataylab zarar yetkazilsa aybdorga qanday chora ko'riladi?

O. Shodiyev.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining Mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish deb nomlangan 612-moddasida bu savolga javob berilgan. Unga asosan o'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, oz miqdorni tashkil etsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha (1,5 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zganing mulkini qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravarigacha (1,5 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

dorni tashkil etsa, – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha (1,5 milliondan 3 million so'mgacha) miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha mudatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Oz miqdor deganda bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lgan doiradagi, ko'p bo'lmagan miqdor deganda esa, bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lgan doiradagi miqdor tushuniladi.

HUQUQLARIMIZNI HIMOYA QILISHI MUMKINMI?

Kasaba uyushmalari biz ishchi-xodimlarning mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqlarimizni himoya qila oladimi va bu borada kasaba uyushmalari qanday huquqlarga ega?

A. Sobirov.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 24-moddasiga asosan Kasaba uyushmalarining xodimlar mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqini himoya etish borasidagi huquqlari belgilangan.

Kasaba uyushmalari mehnatni muhofaza qilishga doir normativ hujjatlarni ishlab chiqishda va kelishib olishda belgilangan tartibda ishtirok etadilar.

Kasaba uyushmalari ishlab chiqarish vositalarini sinash va foydalanishga qabul qilish davlat komissiyalari ishida, ishlab chiqarishdagi kasb kasalliklarini tekshirishda, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) majlislarida ishtirok etadilar.

Xodimlarning sog'lig'iga mehnatda mayib bo'lish oqibati-



da yoki o'z mehnat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi sababli yetkazilgan zarar qoplanishi uchun hamda ularning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishiga doir huquqlari kamsitilgan boshqa hollarda kasaba uyushmalari o'z tashabbusi bilan yoki xodimlarning arizalariga binoan ularning huquqlarini himoya qilib, da'vo arizalari bilan sudga murojaat etishlari mumkin.

DAVLAT TILINI MENSIMASLIK JAVOBGARLIKKA SABAB BO'LADIMI?

Davlat tilini mensimaydiganlar uchun qanday qonuniy javobgarliklar bor?

S. Niyozova.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining "Davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni buzish" deb nomlangan 42-moddasida bu borada javobgarliklar belgilangan. Unga asosan fuqarolarning tarbiya va

ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning tillarini mensimaslik bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha (300 mingdan 600 ming so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

SPORTCHILARIMIZ NUFUZLI MUSOBAQALARDA

MUNOSIB ISHTIROK ETISHDI

Sport-sog'lomlashtirish majmuasi murabbiy va tarbiyalanuvchilari 2022-yilda Jahon, Osiyo va mamlakat chempionatlari, xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.



Fevral oyida Toshkent shahrida sambo bo'yicha kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionatida 98 kg. vazn toifasidagi sportchilar o'rtasida jahon chempioni, yosh murabbiyimiz Nodirjon Mirxoliqov O'zbekiston chempioni bo'ldi.

Suzish bo'yicha erkaklar, ayollar, yoshlar va qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionatida Bahraynda o'tkazilgan Osiyo chempionati ishtirokchisi, terma jamoa a'zosi Sul-tonbek Nuriddinov 50 metrga brass usulida suzishda 1-o'rinni, estafeta yo'nalishida esa Polina Pak 3-o'rinni egalladi.

May oyida Chirchiq shahrida yengil atletika bo'yicha R. Qudratov xotirasiga bag'ishlangan Respublika turnirida Sul-ton G'ofurjonov estafeta yo'nalishida marraga birinchi bo'lib yetib keldi.

Buxoro shahrida sambo bo'yicha

2006-2007-yillarda tug'ilganlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida Abdulaziz Mama-jonov 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Toshkent shahrida yengil atletika bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida O'zbekiston kubogi hamda yoshlar o'rtasida O'zbekiston chempionatida 4x100m masofaga yugurishda Sul-ton G'ofurjonov va Nigina Sharipova chempion bo'lishdi.

Iyun oyida Livanning Juniya shahrida sambo bo'yicha kattalar, yoshlar va o'smirlar o'rtasida Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Chempionatda 98 kg. vaznda Nodir Mirxoliqov kumush medalni qo'lga kiritdi.

Toshkent shahrida yengil atletika bo'yicha U-23 va kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Chempionatda Zarina Ramazonova estafeta yo'nalishida 4x100m masofada 2-o'rinni egalladi.

Qozog'iston Respublikasining Taraz shahrida dzyudo bo'yicha o'tkazilgan Xalqaro turnirda sportchimiz Suhrob Ortiqov 81 kg. vaznda 3-o'rinni egalladi.

Noyabr oyida Qirg'izistonning Bishkek shahrida sambo bo'yicha kattalar o'rtasida Jahon chempionati bo'lib o'tdi. Chempionatda 98 kg. vaznda Nodir Mirxoliqov munosib ishtirok etib, faxrli o'ringa ega bo'ldi.

Keles shahrida sambo bo'yicha 2008-2009-yillarda tug'ilganlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida Odina Saporqulova ishtirok etib, 37 kg. vaznda 3-o'rinni egalladi.

2022-yil 19-22-noyabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahrida erkin kurash bo'yicha kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Ushbu chempionatda 57 kg. vaznda kombinatimiz sport-sog'lomlashtirish majmuasi tarbiyalanuvchisi Nodirjon Safarov ham ishtirok etib, 1-o'ringa sazovor bo'ldi. U bu yil mart oyida bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatiga yo'llanmani ham qo'lga kiritdi.

Toshkent shahrida suzish bo'yicha O'zbekiston kubogida Asilbek Zakrillayev 3-o'rinni egalladi.

Dzyudo bo'yicha kattalar o'rtasida O'zbekiston chempionatida 81 kg. vaznda Bobur Ortiqov 2-o'rinni egalladi.

Misir poytaxti Qohira shahrida Turkiyaning Konya shahrida bo'lib o'tgan V Islom birdamlik o'yinlarida qatnashib, bronza



medalga sazovor bo'lgan Sul-tonbek Nuriddinov sportning para suzish bo'yicha Qohira ochiq chempionatida ishtirok etib, bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Dekabr oyida Urganch shahrida gimnastika bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Musobaqada murabbiyimiz Irina Kamenskaya va "Babushki" jamoasining 10 nafar a'zosi faol ishtirok etib, 45 yoshdan yuqori bo'lgan ayollar o'rtasida g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Sportchilarimiz yil davomida bundan tashqari ham ko'plab musobaqalarda kombinatimiz sharafini munosib himoya qilishdi. Joriy yilda rejalarimiz, maqsadlarimiz yanada katta. Metallurglar o'rtasida qator sport tadbirlari tashkil etishdan tashqari, umid qilamizki sportchilarimiz orasidan respublika, Osiyo va Jahon miqyosida o'tkaziladigan musobaqalarda ham yangi chempion va sovrindorlar yetishib chiqadi.

MEHNATDA HAM SAMARA, HAM SOG'LOM BO'LISH UCHUN

"O'zmetkombinat" AJ Sport-sog'lomlashtirish majmuasida jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlari o'tkazib kelinadi. Bu sport tadbirlarida kombinat ishchi-xodimlari va ularning oila a'zolari ishtirok etishadi.

Sport-sog'lomlashtirish majmuasida yengil atletika, suzish, sambo, dzyudo, erkin kurash, shaxmat, yunon-rum kurashi va "Sog'lomlashtirish" guruhlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Bu guruhlarda 20 nafar murabbiy 43 ta guruhda 668 nafar ishtirokchilarga mashg'ulotlar o'tashmoqda.

Majmuada 2022-yilda o'tkazilgan turli sport musobaqalarida 1654 nafar kombinatimiz ishchi-xodimlari, shu jumladan, 277 nafar ayollar faol ishtirok etishdi.

"Metallurg" sport-sog'lomlashtirish majmuasida kombinatda mehnat qilayotgan erkaklar o'rtasida 14-yanvar - "Vatan himoyachilari kuni"ga bag'ishlab sportning stol tennisi, shashka, yengil atletika va tosh ko'tarish turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 22 ta sexdan 80 nafar ishchi-xodim qatnashdi.

8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan musobaqalar sportning aralash estafeta, stol tennisi, darts, shashka va yengil atletika turlari bo'yicha o'tkazildi. Musobaqalarda 16 ta sexdan 130 nafar ayol o'zaro kuch sinashdi.

Kombinat ishchi-xodimlari o'rtasida "Navro'z" umumxalq bayramiga bag'ishlab, yengil atletika, tosh ko'tarish, milliy kurash, armrestling va arqon tortish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 22 ta sexdan 116 nafar ishchi-xodim ishtirok etdi.



Metallurglar kasb bayramiga bag'ishlab sportning 6 turi - yengil atletika, tosh ko'tarish, milliy kurash, arqon tortish, stol tennisi va darts bo'yicha tashkil etilgan musobaqalarda 29 ta sexdan 237 nafar ishchi-xodim, shu jumladan, 57 nafar ayol qatnashdi.

Kombinat ishchi-xodimlari va ularning oila a'zolari o'rtasida Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan oilaviy musobaqalar tashkil etildi. Aralash estafeta, joydan turib uzunlikka

sakrash, basketbol to'pini xalqaga tushirish va darts bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda 7 ta sexdan 11 nafar oilaviy jamoa qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yillik bayramiga bag'ishlab sportning yengil atletika, tosh ko'tarish, milliy kurash, arqon tortish, shaxmat va shashka turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. Bu musobaqalarda 26 ta sexdan 262 nafar ishchi-xodim, jumladan, 34 nafar ayol ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yillik bayramiga bag'ishlab, 21 ta sexdan 81 nafar ishchi-xodim ishtirokida sportning tosh ko'tarish, milliy kurash, shashka, arqon tortish, shaxmat va stol tennisi bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Shuningdek, "Metallurg" sport-sog'lomlashtirish majmuasida ishchi-xodimlar hamda rahbar va mutaxassislar orasida mini-futbol, shaxmat va shashka kabi yana bir qator musobaqalar o'tkazildi.

Jamshid O'SAROV,
Metallurglar sport-sog'lomlashtirish
majmuasi direktori o'rinbosari.



"BIR TIYIN" LIK TILAK

IBRATLI HIKOYA

Bir kambag'al bechora yo'lda ketayotsa, oldidan bir hamyon chiqibdi. Ichini ochib qarasa, bir tiyin tanga bor ekan, kambag'al "Ota-onam anchadan beri sut ichmagandi. Bu pulga ularga sut olib boraman" deb o'ylab turgan ekan, hamyon og'irlashibdi.

Ichini ochib qarasa, hamyonda o'n tanga turganmish. Kambag'al "Yo Xudo, qudratingdan" – deb hayron qolibdi-da:

– Undan ko'ra bu pulga bitta sigir olaman, shunda ota-onam, farzandlarim ham har kuni tongda sut ichadigan bo'lishadi – deb o'ylagan ekan hamyon yana og'irlashibdi.

Bu safar uni ichida anchagina pul turgan ekan. Kambag'al "O'tgan qish sovuq xonada ota-onam rosa qiynalishgandi. Endi bu pulga uyni ta'mirlayman" degandi, hamyon yanayam og'irlashibdi.

O'shanda, kambag'al, "Xotinim anchadan beri bu uyda yashamayman deb aytayotgandi. Undan ko'ra, eski uyni ota-onamga qoldirib, yangi uy olib, ko'chib ketamiz!" deb o'ylagan ekan, hamyon avvalgi holatiga qaytib qolibdi! Ya'ni, ichidagi hamma pul yo'qolib o'sha bir tiyin qolibdi.

Xulosa: Ko'rdingmi, birodar, ota-onangga yaxshilik tilamas ekansan, o'zingga qilgan barcha tilaklaring "bir tiyin" bo'lib qolaveradi!



Namozda bo'lsang, qalbingni ehtiyot qil! Odamlar orasida bo'lsang, tilingni ehtiyot qil! Birovning uyida bo'lsang, ko'zingni ehtiyot qil! Ovqat ustida bo'lsang, oshqozoningni ehtiyot qil!

Ikki narsani hech eslama: Birinchisi odamlarning senga qilgan yomonligini. Ikkinchisi odamlarga qilgan yaxshiligini.

KIBR

Ulug'lar tavozuli bo'lishadi. Past insonlar o'zini katta oladi. Kibr qiladi. Kibr qilgan kishi o'zidagi razillik tufayli kibr qiladi.

Hakim ibn Hizom roziyollohu anhu Qurayshning ulug'laridan edi. Ammo Muoz ibn Jabal roziyollohu anhudan ta'lim olar edi. Vaholanki, u Muozdan 50 yosh katta edi. Unga: "Shu yoshgina boladan ta'lim olasanmi?", deyishganda Hakim ibn Hizom: "Insonlarni kibr halok qilgan", der edi.

Haqiqatdan ham kibr insonlarni halok qiladi. Ba'zilar ozgina pul ko'rsa yurishi, turishi, kulishi, o'rtoqlari, xarid qiladigan do'konlari ham boshqacha bo'lib qoladi. Odamlar orasida xuddi Qorunga o'xshab yuradi.

Boshqa biri esa "ilmiy daraja"ga erishsa o'zini xuddi avvalgi-yu oxirgilar ilmini olgan kishidek tutadi go'yo.

Yana biri biror mansabga erishsa xuddi dunyoning kalitlariga ega chiqqandek tutadi o'zini.

Boshqa birovi ijtimoiy tarmoqlarda

HIKMATLAR

Ikki narsani aslo unutma: Birinchisi Alloh azza va jallani. Ikkinchisi oxirat diyorini.

Ko'p narsa qaytib kelmaydi: gapirilgan gap, otilgan o'q, o'tib ketgan vaqt, qo'ldan chiqarilgan fursat.

Hazrati Umar.



mashhur bo'lsa o'zini xuddi Qustantiniy-yani fath qilgan fotihdek tutadi.

Boylikning yonida kibr bo'lsa u faqirlikdir.

Ilmiy darajaning yonida kibr bo'lsa u johillikdir.

Mansabning yonida kibr bo'lsa u pastkashlikdir.

Mashhurlikning yonida kibr bo'lsa u tanazzuldir.

Mutakabbir sizga qanchalar yaqinlashmasin, u bilan do'st bo'lmang!

Tavozuli inson sizdan qanchalar o'zini olib qochmasin, undan ajralmang!

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Bu ovozni eshitgan qoplon irillashdan, sirtlon uvillashdan to'xtaydi, maymunlar ayuhannos solib daraxtlarning eng baland shohlariga chiqib ketadi, kiyiklar, ohular yashin tezligida ko'zdan g'oyib bo'ladi, podada ma'rayotgan qo'y, echkilarning ovozi o'chadi, itlar dumini qisib egasining pinjiga kiradi. Bu ovozni eshitganda hatto odam ham bezgak tutgandek qaltirab, bekinish uchun joy axtaradi.

Savol: Bu qanday ovoz?

Dunyodagi hech bir davlatning ramziy madhiyasida, boshqa bir davlatning nomi qatnashgan emas. Ammo O'zbekiston (O'zbeklar) nomi bir davlat madhiyasiga yozilgan va hozirda kuylab kelinmoqda.

Savol: Bu qaysi davlat madhiyasi va nima uchun O'zbekistonga bunday yuqori hurmat ko'rsatishib madhiyasiga

o'zbeklar nomini zikr qilishgan?

Mustaqillika erishish arafasida, ya'ni 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu tarixiy ahamiyatga molik ish maxsus farmon bilan ilgari ham bir necha asrlar oldin bir hukmdor tomonidan amalga oshirilgan edi.

Savol: Bu ish kim tomonidan amalga oshirilgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarining javoblari.

Italiya poytaxti Rim va unda joylashgan davlat Vatikan. Qorqiz. Homilador ayollarida. Shaxmat o'yinida. Qo'ng'iroq yoki eshik jiringlashi.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

– Birodar, qizingizni pianino chalishga o'rgatish uchun muallim yollabsiz. Juda qimmatga tushsa kerak-a?

– Yo'q, aksincha. Qizim pianino chalishni o'rgana boshlagandan beri oshig'im olchi bo'ldi. Qo'shning uyini yarim bahoga sotib oldim.

Poezdga chipta ololmagan erkak ayyorlik yo'liga o'tdi. G'ala-g'ovurda vagonga kirdi-da, jomadonini polka ostiga yashirib o'zi nimanidir qidira boshladi. Odamlar undan so'rashdi:

– Nima qidirayapsiz?

– E, kobra ilonim o'rindiq ostiga tushib ketdi. Shuni tuta olmayapman.

Qo'rqib ketgan odamlarning hammasi vagondan tushib ketishdi. Erkak esa, bemalol bir o'rindiqqa yonboshlab uyquga ketdi. Yarim kechasi tursa, poezd hamon joyidan qo'zg'almabdi. Kuzatuvchidan so'radi:

– Manzilga yetib keldikmi?

– Qaerga yetib kelasiz? Kecha bir ahmoq ilonini yo'qotib qo'yan ekan. Vagonni eshelondan uzib qoldirib ketishgan.

– Oyi, men bir ayolning oyog'ini bosib olgandim. UZR so'radim.

– U-chi?

– U menga konfet berdi.

– Sen rahmat aytdingmi?

– Yo'q, ikkinchi oyog'ini ham bosib oldim.

**QISQA VA TA'SIRLI
HIKOYALAR****QASD VA XALOS**

Jonimga qasd qilish uchun o'zimni pastga tashladim. Keyin fikrimdan qaytdim.

Ernest XEMENGUEY.

TO'NG'ICH O'G'IL

To'ng'ich o'g'il olis yurtda edi. Unga ukalar bir necha kun qo'ng'iroq qilib, tusha olishmadi. Bir kun oxiri go'shak ko'tarildi.

– Alo? Aka?

– Hov, Samandarjon? Yaxshimisan, ukam?

– Rahmat... Aka, bardam bo'ling. Ota-mizdan ayrilib qoldik. To'ng'ichimizsiz, otam sizni so'ray-so'ray tinkasi quridi. Ko'zi orqada ketdi otaginamning...

– Eh... Nega bunday bo'ldi, Samandarjon? Otam hovlini kimga vasiyat qilib ketdi?..

Jasur KENGBOYEV.

ONA

– "Onajonim" nomli she'ringiz shunday yuksak mukofotga loyiq ko'rilibdi! Tabriklaymiz, – dedi muxbir shoigra.

– Tashakkur! – mag'rurlandi ijodkor.

Buni televizordan tomosha qilayotgan onaning shodlikdan ko'zlariga yosh keldi. O'g'li mashhur shoir bo'libdi! So'ng "Qariyalar uyi"dagi chiroqlar o'chirildi. Ona o'rniga cho'zildi.

Nodirabegim IBROHIMOVA.

“METALLURG MINBARI” YILNOMASI

YANVAR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					

FEVRAL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28					

MART

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

APREL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

MAY

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

IYUN

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30		

2023-YIL – INSONGA E'TIBOR
VA SIFATLI TA'LIM YILI

UMUMXALQ BAYRAMLARI

- 1-yanvar – Yangi yil bayrami
 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni
 21-mart – Navro'z bayrami
 9-may – Xotira va qadrlash kuni
 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni
 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni
 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni
 Ramazon va Qurbon hayitlarining birinchi kuni

MUSTAHKAM SOG'LIQ,
BAXT VA OMAD SIZGA YIL
DAVOMIDA HAMROH BOLSIN!

IYUL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1 2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30
31						

AVGUST

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5 6
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

SENTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1 2 3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	

OKTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					

NOYABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30			

DEKABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1 2 3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31